

“Shurtan gaz kimyo majmuasi” MChJning

“ 04 ” 11 2022 yildagi

02/326-uz -son buyrug`iga

2-ilova

**“Shurtan gaz kimyo majmuasi” MChJ odob-axloq
komissiyasi to`g`risidagi
NIZOM**

1- bob. Umumiy qoidalar

1. Ushbu nizom Jamiyatda Odob-axloq komissiyalari (Keyingi matnda - Komissiya) faoliyatini tartibga soladi.

2. Komissiya Jamiyat ishchi-xizmatchilari tomonidan odob-axloq qoidalariga rioya etishni nazorat qilish, ularning axloq normalariga zid bo`lgan xatti-harakatlarini oldini olish va odob-axloq qoidalariga rioya etish bilan bog`liq nizolarni ko`rib chiqish maqsadida tuziladi.

3. Komissiya faoliyati O`zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlariga, “Davlat fuqarolik xizmati to`g`risida”gi O`zbekiston Respublikasining Qonuniga, O`zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qarorlariga, O`zbekiston Respublikasi Prezidentining farmon, qaror va farmoyishlariga, Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlariga, O`zbekiston Respublikasi davlat xizmatchilari odob- axloqining qoidalariga, ushbu nizomga va boshqa qonunchilik hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladi.

4. Komissiya Komissiya raisi, kotibi va a`zolaridan iborat bo`lib, umumiy soni besh nafardan kam bo`lmasligi va toq sonda bo`lishi lozim.

Komissiya tarkibiga tajribali, mehnat jamoasida obro`-e`tiborga sazovor bo`lgan Jamiyat ishchi-xizmatchilari kiritiladi.

Komissiya tarkibi Jamiyat rahbari buyrug`i bilan tasdiqlanadi va doimiy ravishda faoliyat yuritadi.

Komissiya tarkibiga komissiya tomonidan qabul qilinadigan qarorlarga ta`sir ko`rsatish mumkin bo`lgan manfaatlar to`qnashuvi ehtimolini nazarda tutgan holda o`zgartirish kiritiladi.

2- bob. Komissiyaning asosiy vazifalari va funksiyalari

5. Komissiyaning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

Jamiyat ishchi-xizmatchilarining idoraviy odob-axloq qoidalarini ishlab chiqish;

Jamiyat ishchi-xizmatchilari tomonidan odob-axloq qoidalariga rioya etilishi masalalarini ko`rib chiqish, xizmat tekshiruvlarini o`tkazish;

Jamiyat ishchi-xizmatchilari o`rtasida axloq normalariga zid bo`lgan xatti-harakatlarning oldini olishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish; jismoniy va yuridik shaxslarning Jamiyat ishchi-xizmatchilarining xatti-harakatlariga doir murojaatlarini ko`rib chiqish;

Jamiyat ishchi-xizmatchilarining sha`ni va qadr-qimmatini himoya qilish bilan

bog`liq masalalarni ko`rib chiqish;

Jamiyat ishchi-xizmatchilarining odob-axloq qoidalarini takomillashtirish yuzasidan takliflar ishlab chiqish;

Jamiyat ishchi-xizmatchilari tomonidan odob-axloq qoidalariga rioya etilishi holatini tahlil qilish, natijalari haqida Jamiyat rahbari va jamoatchilikni xabardor qilib borish.

6. Komissiya o`z vakolatlari doirasida:

Jamiyat ishchi-xizmatchilari tomonidan odob-axloq qoidalariga rioya etilishi ustidan nazoratni amalga oshiradi;

Jamiyat ishchi-xizmatchilari tomonidan odob-axloq qoidalarining buzilishi bilan bog`liq masalalar yuzasidan xulosalar tayyorlaydi;

Jamiyat ishchi-xizmatchilarining odob-axloq qoidalari bilan bog`liq masalalarini ko`rib chiqish jarayonida zarur axborotni so`rab oladi;

ko`rib chiqish uchun kiritilgan masalalarni hal etish uchun Komissiya majlislariga ekspertlar va mutaxassislarni jalb qiladi;

odob-axloq qoidalariga oid masalalar yuzasidan Jamiyat ishchi-xizmatchilariga tegishli maslahat va tushuntirishlar beradi;

zarur hollarda, Komissiyada ko`rib chiqilgan masalalar bo`yicha Jamiyat ishchi-xizmatchisini intizomiy javobgarlikka tortish yuzasidan davlat organi va tashkiloti rahbariga taklif kiritadi.

7. Komissiya davlat organi va tashkilotining tarkibiy bo`linmalari, boshqa davlat organlari va tashkilotlari, mansabdor shaxslari va jamoatchilik bilan hamkorlik qiladi.

8. Komissiya faoliyatini tashkil qilish va Jamiyat ishchi-xizmatchilari tomonidan odob-axloq qoidalarining buzilishi bilan bog`liq masalalarni ko`rib chiqish ushbu nizomga ilovada keltirilgan sxemaga muvofiq amalga oshiriladi.

3-bob. Komissiya faoliyatini tashkil etish

9. Komissiya majlislari zaruriyatga qarab o`tkaziladi.

Komissiya majlislari ochiq tarzda o`tkaziladi. Zarur bo`lgan hollarda Komissiya yopiq majlis o`tkazish to`g`risida qaror qabul qilishi mumkin.

10. Komissiya majlisini Komissiya raisi, u yo`qligida esa, uning topshirig`iga binoan Komissiya a`zolaridan biri olib boradi. Komissiya majlisida bayonnoma yuritiladi, u raislik qiluvchi va Komissiya kotibi tomonidan imzolanadi.

11. Komissiya majlislari, agar ularda Komissiya a`zolari umumiy sonining kamida uchdan ikki qismi hozir bo`lsa, vakolatli hisoblanadi.

12. Komissiyaning navbatdagi majlisi to`g`risida uning raisi Komissiya a`zolariga yozma ravishda, qoida tariqasida, kamida ikki kun oldin xabar qiladi, shuningdek majlisning boshqa ishtirokchilarini oldindan xabardor etadi.

13. Komissiyaning qarorlari majlisda qatnashgan Komissiya a`zolarining ko`pchilik ovozi bilan qabul qilinadi. Ovozlar teng bo`lgan hollarda Komissiya raisining ovozi hal qiluvchi ovoz hisoblanadi.

Komissiyaning qarorlari Komissiya raisi tomonidan imzolanadi.

14. Komissiya raisi:

Komissiya ishini tashkil etadi;